

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МҲАЛЛИФ МАСЪҮЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АЎАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mo'minov Zokirjon,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti huzuridagi markaz direktori

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048572>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tashqi migratsiya jarayonlarining O'zbekistonda ijtimoiy mobillik shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Migratsiya natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy maqom o'zgarishi, iqtisodiy barqarorlik, kasbiy malaka o'rnatish va madaniy integratsiya jarayonlari chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, tashqi mehnat migratsiyasi orqali o'zining ijtimoiy holatini yaxshilagan shaxslar va ularning oilalari misolida vertikal va gorizontall ijtimoiy mobillik holatlari empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Viloyatlar kesimidagi statistik tafovutlar, qaytgan migrantlarning reintegratsiyasi hamda transformatsion yondashuv doirasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy strukturaviy o'zgarishlar ushbu tadqiqotning asosiy e'tibor markazida turadi. Migrantlar xorijda nafaqat moddiy resurslar, balki ijtimoiy va madaniy kapital to'plashadi. Ular xorijiy tillarni o'rganadi, zamonaviy xizmat ko'rsatish, moliyaviy savodxonlik va mehnat madaniyati bilan tanishadi. Qaytgan migrantlar mahalliy jamiyatda ikki tomonlama bosimga uchrashi mumkin: bir tomondan ular yuqori iqtisodiy salohiyatga ega bo'lsa-da, boshqa tomondan mahalliy ijtimoiy tuzilmalar ularni qabul qilishga tayyor emasligi, bu borada yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Kalit so'zlar: tashqi migratsiya, ijtimoiy mobillik, transformatsion yondashuv, vertikal mobillik, qaytgan migrant, iqtisodiy farovonlik, reintegratsiya, ijtimoiy strukturaviy o'zgarishlar.

Муминов Зокиржон,

Доктор философских наук по социологии (PhD), доцент

Директор Центра при Наманганском государственном университете

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В ПРОЦЕССАХ ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние процессов внешней миграции на формирование и развитие социальной мобильности в Узбекистане на основе социологического подхода. Глубоко изучаются процессы изменения социального статуса, экономической стабильности, повышения профессиональной квалификации и культурной интеграции, возникающие в результате миграции. Особое внимание уделяется анализу вертикальной и горизонтальной

социальной мобильности на основе эмпирических данных, на примере лиц и их семей, улучшивших своё социальное положение благодаря трудовой миграции. Основное внимание в исследовании уделяется статистическим различиям между регионами, реинтеграции вернувшихся мигрантов и социально-структурным изменениям в рамках трансформационного подхода. Мигранты за рубежом накапливают не только материальные ресурсы, но и социальный и культурный капитал. Они изучают иностранные языки, знакомятся с современным уровнем обслуживания, финансовой грамотностью и культурой труда. Вернувшиеся мигранты могут столкнуться с двойным давлением в местном сообществе: с одной стороны, они обладают высоким экономическим потенциалом, с другой — местные социальные структуры часто не готовы их принять. Это одна из актуальных проблем, ожидающих своего решения.

Ключевые слова: внешняя миграция, социальная мобильность, трансформационный подход, вертикальная мобильность, вернувшийся мигрант, экономическое благосостояние, реинтеграция, социально-структурные изменения.

Muminov Zokirzhon,

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor,

Director of the Center at Namangan State University

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL MOBILITY IN THE PROCESSES OF EXTERNAL MIGRATION

ANNOTATION

This article analyzes the impact of external migration processes on the formation and development of social mobility in Uzbekistan, based on a sociological approach. It thoroughly examines the processes of social status change, economic stability, professional skill development, and cultural integration that arise as a result of migration. Particular attention is paid to cases of vertical and horizontal social mobility, analyzed through empirical data on individuals and their families who have improved their social status through labor migration. The research focuses on regional statistical differences, the reintegration of returning migrants, and the emerging social structural changes within the framework of the transformational approach. Migrants accumulate not only material resources abroad but also social and cultural capital. They learn foreign languages and become familiar with modern service standards, financial literacy, and labor culture. Returning migrants may face dual pressure in local communities: on the one hand, they possess significant economic potential, but on the other hand, local social structures may not be ready to accommodate them — a pressing issue still awaiting resolution.

Keywords: external migration, social mobility, transformational approach, vertical mobility, returning migrant, economic well-being, reintegration, social structural changes.

KIRISH

Globalashuv va demografik bosimlar natijasida ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston ham tashqi mehnat migratsiyasiga tobora ko‘proq tayanmoqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tizimlarga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tashqi migratsiya orqali xorijga ketgan fuqarolarning orttirgan tajribasi, moliyaviy resurslari va ijtimoiy aloqalari ularning ijtimoiy maqomi va jamiyatdagi pozitsiyasini qayta belgilab bermoqda.

Ijtimoiy mobillik, ya‘ni shaxs yoki guruhlarining ijtimoiy pog‘onalardagi harakati, migratsiya orqali tezlashgan, diversifikatsiyalashgan va ko‘p yo‘nalishli xususiyat kasb etgan. Bu holat, o‘z navbatida, jamiyat ichki strukturasida yangicha tabaqalanish, ijtimoiy kapitallashuv, madaniy moslashuv va institutsional transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Migratsiya va ijtimoiy mobillik o‘rtasidagi bu murakkab o‘zaro bog‘liqlikni tushunish, mavjud siyosat va strategiyalarni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda tashqi migratsiya jarayonlarining O'zbekistonda ijtimoiy mobillikni qanday rivojlantirayotgani, bu jarayonda qanday ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ishtirok etayotgani, hamda viloyatlar kesimida qanday hududiy tafovutlar mavjudligi ilmiy-nazariy va statistik tahlil asosida o'rganiladi. Shuningdek, qaytgan migrantlarning reintegratsiya jarayonlari hamda transformatsion yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy o'zgarishlar baholanadi.

METODOLOGIYA

Tashqi migratsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillikka ta'sirini o'rganishda zamonaviy sotsiologik tadqiqot metodlari, statistik tahlil usullari hamda transformatsion yondashuv asos qilib olindi. Ushbu bo'limda tadqiqotning metodologik asosi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, asosiy gipotezalar, ma'lumotlar manbai va ishlatilgan metodlar tizimli ravishda yoritiladi.

Tadqiqot sotsiologik nazariyalar, xususan, P.Sorokin [1], P.Bourdieu [2], A.Giddens [3], va M.Granovetter [4] kabi olimlarning ijtimoiy mobillik va ijtimoiy tarmoqlar nazariyalariga tayanadi. Ayniqsa, P.Bourdieu'ning "ijtimoiy kapital", "madaniy kapital" va "habitus" tushunchalari migratsion mobillikni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, transformatsion yondashuv – ya'ni migratsiyani shunchaki harakat emas, balki ijtimoiy tizimning ichki tarkibiy qayta tuzilishi deb talqin qilish – asosiy nazariy paradigma sifatida tanlandi.

ASOSIY QISM

P.Sorokin jamiyat tuzilmasidagi shaxs yoki guruh mavqeining o'zgarishiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi xilma-xil omillarning umumiy ko'rinishini kengaytirish orqali o'zining ilmiy merosini boyitdi.

Aksariyat olimlar o'zgarishlarni ijtimoiy mobillikning asosiy sababi va sharti deb bilishadi, ya'ni jamiyatdagi iqtisodiy faoliyatning asosiy turidagi o'zgarishlar. Shu ma'noda I.Kurayevning [5] ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Migratsiya tushunchasi ijtimoiy hodisalarning keng toifasiga qaratilgan bo'lib, zamonaviy jamiyatning vaqt va makonida rivojlanish jarayonlarining ko'p omilliligi bilan tavsiflanadi. Bunda ijtimoiy-falsafiy tahlilning o'rni migratsiyaning sifat jihatdan o'ziga xosligini uning genezisi va mavjudlikning ko'p qirraliligi, xususan, ijtimoiy mantiq nuqtai nazaridan, fuqarolar harakatining istiqbolli modellari, shu jumladan, ichki siyosiy vaziyat bilan bog'liq holda ochib beradi. Aholining migratsiyasi (lotincha migratio - ko'chirish) etimologik ma'nosini anglatadi siljish joylar turar joy, harakatlanuvchi, balki kengroq talqin qilishga ham imkon beradi.

Xalqaro migratsiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, migrantlarning qabul qiluvchi davlatda ijtimoiy integratsiyasi, ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatli joylashishi, bilim va ko'nikmalar orttirishi bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati, mahalliy jamiyatning qabul qiluvchanligi va integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi dasturlar muhim rol o'ynaydi.

Migratsiya alohida aholi yashash joylari, jahon aholisi geografiyasi, tuzilishi va dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya omillari umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va uni keltirib chiqaradigan boshqa sabablardir. Eng umumiy shaklda ular orasida bir nechta guruhlar ajratiladi.

Migratsiya omillarini ham surish va tortish omillariga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga qashshoqlik, ochlik, turmush darajasi va ish haqining pastligi, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining haddan tashqari ko'payishi, yuqori ishsizlik, ekologik ofatlar, urushlar, nizolar, ta'qiblar va boshqalar kiradi.

Ikkinchi guruhga turmush darajasi va ish haqining yuqoriligi, rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining mehnat resurslariga bo'lgan ehtiyoji, bandlik imkoniyatlari, xavfsizlik, rivojlangan mamlakatlarda o'z mehnat resurslarining taqchilligi, qulay tabiiy-iqlim sharoitlari va boshqalar kiradi. Ma'lumki, migratsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Tabiiy migratsiya yashash sharoitlariga bog'liq jarayon.
2. Iqtisodiy
3. Demografik
4. Huquqiy
5. Siyosiy
6. Ekologik

Ulardan asosiylari quyidagilardir:

- 1) migratsiya asosan yaqinroq masofalarga amalga oshiriladi;
- 2) kattaroq shaharlarga migratsiya oqimi ko'proq bo'ladi;
- 3) har qanday oqimga qarshi oqim mavjud;
- 4) shahar yiriklashuviga migrantlar sonining o'sishi sabab bo'ladi;
- 5) migratsiyaning o'sishiga savdo, sanoat va transporting rivojlanishi sabab bo'ladi;
- 6) migratsiyaga asosiy omilini iqtisodiy sabablar tashkil etadi;

Industriyadan oldingi jamiyatda birinchi bosqichda migratsiya cheklangan. Tabiiy o'sishi past, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan atrof-muhit atrofida odamlarning ozgina harakatlanishi mavjud. Hozirda dunyoning barcha mamlakatlari bu bosqichni yakunladi.

Ikkinchi bosqich aholi portlashining boshlanishiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda kam rivojlangan davlatlar, asosan, Afrika (masalan, Namibiya, Efiopiya) va Osiyoda (masalan, Butan, Nepal) kam sonli mamlakatlar ushbu bosqichda va ularning soni kamayib bormoqda.

Uchinchi bosqichda qishloqdan shaharga ko'chish davom etadi, shaharlar o'rtasida migratsiya tez o'sadi. Migratsiya, jumladan, xalqaro migratsiya ko'lami ortib bormoqda. Ushbu bosqich Lotin Amerikasi, Osiyoning ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarida, bir qator Afrika mamlakatlarida (masalan, Janubiy Afrika, Misr, Nigeriya) va o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan ba'zi mamlakatlarda (masalan, Polsha, Vengriya, Rossiya, Ukraina) mavjud.

To'rtinchi bosqichda kech sanoat va postindustrial jamiyatda tabiiy o'sishning ahamiyatsizligi bilan qishloqdan shaharga migratsiya ma'lum darajada davom etadi, ammo kichik miqyosda. Katta shaharlardan kichikroq shaharlarga migratsiya hajmi ortib bormoqda. Bu bosqich asosan rivojlangan Yevropa mamlakatlariga (masalan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Gollandiya) xos bo'lib, qisman AQShda namoyon bo'ladi. Lotin Amerikasining bir qator rivojlangan mamlakatlari ham ushbu bosqichning xususiyatlarini o'zlashtirmoqda (masalan, Braziliya, Meksika).

Migratsiya omillaridan tashqari I.Perevedentsev [6] boshqa buyurtmalar uchun sabablar borligini ta'kidlaydi. Masalan, u migratsiya sabablarini, ya'ni bevosita aniq, to'g'ridan-to'g'ri sabablari, ko'chirish sabablarini migrantlar ongida aks etishini ochib beradidi.

“Jozibador omillar - bu aholini tabiiy va iqtisodiy sharoitlar to'plamiga ko'ra hayot sifati avvalgi yashash joyidagiga qaraganda yuqori bo'lgan hududlarga ko'chib o'tishga undaydigan omillar. Turtuvchi omillarga, o'z navbatida, doimiy yashash joylarida yuzaga keladigan, shuningdek, tabiiy yoki iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan holatlar kiradi, ularning ta'siri, keyinchalik moslashish uchun ko'chirish mintaqasida sharoitlar mavjudligidan qat'i nazar, ma'lum bir hududda keyingi yashashni imkonsiz qiladi”.

20-asr oxiri - 21-asr boshlaridagi jahon voqealari nuqtai nazaridan. Siyosiy omillar mehnat muhojirlarining harakati uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Dunyoning turli nuqtalarida notinchlik sababli, ziddiyat va zo'ravonliklarni ortishi, ekologik ofatlar va boshqa global xatarlar, qashshoqlik va kambag'allikning muammolarini kuchaytirmoqda.

BMT Taraqqiyot dasturi ham Oksford universiteti hamkorlikda o'tkazilgan so'nggi o'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, 2019-yil sayyoramizning yuzdan ortiq mamlakatida istiqomat qiluvchi 5,7 milliard aholining 1,3 milliard nafari (23 foiz) kambag'aldir. Ularning 886 million nafari daromadi kambag'allik chizig'i bilan barobar bo'lsa, qolgan 440 million nafari esa o'ta qashshoq sanaladi. Jahon bankining hisob-kitoblari ko'ra, pandemiyadan avval qashshoq odamlar soni qariyb 600 million kishi edi. Pandemiya tufayli bu raqamlar 71 millionga ko'payishi bayon etildi.

BMT taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisi tez o'sib borishi natijasida 2050-yilda 9,8 milliardga yetadi. Demak, 2050-yilga borib 800 milliondan ortiq kishilar qashshoqlikdada qoladilar, ya'ni tabiiy ofatlar, turli to'qnashuvlar, oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'zgarishi kabi sabablar natijasida ochlik inqiroziga uchraydi. Hisob-kitoblarga ko'ra 2030-yilga borib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni 70 foizga oshirish lozim [7].

Hozirgi kundada oziq-ovqat xavfsizligini nazoratga olish dolzarb masala hisoblanadi. Oziq-ovqat taqchilligi muammosi ijtimoiy-siyosiy halokatga sabab bo'lib, kelajakda qashshoqlik va kambag'allik doirasini oshiradi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishda muhim omillardan biri – ta'lim va fan rolini kuchaytirish, sifatli tibbiy xizmatni tashkil etishdir [8]. Sog'lom hamda bilimli

jamiyat kapital qo'yilmalarning o'zini oqlashi koeffitsientiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, "kambag'allikni bir avloddan keyingisiga o'tkazish"ning oldini oladi. Yer yuzida aholining eng kambag'al toifasi (75 foizga yaqin) qishloq joylarda yashaydi. Ularning turmushi, oziq-ovqat xavfsizligi, asosan, qishloq xo'jaligiga bog'liq. Ko'pincha ular zaxiralar, xizmatlar, texnologiyalar, bozor va infratuzilmadan mosuvodirlar.

Bugungi kunda koronavirus pandemiyasi sababli yuzaga kelgan global inqiroz barcha mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Pandemiya sharoitida ishsizlik va kambag'allikning o'sishi eng rivojlangan davlatlarda ham ulkan muammoga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qashshoqlik chegarasida yashaydigan odamlar soni judayam ko'payib ketishi mumkin, deb hisoblayapti. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2022-yillarda dunyoda qashshoqlar soni 150 millionga ortdi [9].

ShHT hududida 800 millondan ziyod yosh avlod vakillari yashaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qligi xavfli tendentsiyaga aylanishi hech gap emas, ya'ni ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar o'zini huquqbuzarlikka, shu jumladan, terrorizm, odam savdosi va giyohvandlikka urishi mumkin. Demak, hududda kambag'allikni qisqartirish masalasi - ShHT mintaqasida birinchi navbatda xavfsizlik hamda barqarorlikni ta'minlash o'ta muhimdir. Tashqi migratsiya O'zbekiston jamiyatida yangi ijtimoiy dinamikalarni shakllantirayotgan asosiy omillardan biridir. Mehnat migratsiyasi natijasida shaxs yoki guruhlar o'z iqtisodiy holatini yaxshilashi, yangi ijtimoiy tarmoqlarga qo'shilishi, ijtimoiy maqomini oshirishi yoki boshqa bir sohada moslashuvi orqali ijtimoiy pog'onalar o'zgarishiga sabab bo'ladi [10].

2024-2025-yilda Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida jami 600 nafar tashqi migrantlar va ularning oilalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov asosida tashqi migratsiya jarayonlarining ijtimoiy mobillikka ta'siri amaliy jihatdan o'rganildi. So'rov natijalari respondentlarning quyidagi ijtimoiy holatlarda o'zgarish yuzaga kelganini ko'rsatdi: uy-joy sharoitining yaxshilanishi, farzandlarning oliy ta'limga kirishi, kasbiy malaka orttirish, yangi ijtimoiy aloqalarga ega bo'lish, hamda ba'zilarida qaytishdan so'ng reintegratsiya jarayonlarining murakkab kechishi. Quyidagi jadvalda har uch viloyat kesimida asosiy ko'rsatkichlar foizda ifodalangan bo'lib, bu migratsion ijtimoiy mobillikning tahliliy tasvirini beradi (1-jadval):

1-jadval


Migratsion ijtimoiy mobillikning tahliliy tasviri

Ko'rsatkich	Namangan (%)	Andijon (%)	Qashqadaryo (%)
Uy-joy sharoiti yaxshilangan	64	59	67
Farzandlar oliy ta'limga kirgan	42	40	39
Kasbiy malaka orttirgan	55	52	58
Ijtimoiy tarmoqlarga qo'shilgan	61	58	63
Yangi biznes boshlagan	38	35	41
Reintegratsiya qiyin kechgan	28	31	34

So'rov natijalari asosida tuzilgan grafik quyidagicha ko'rinadi (1-rasm):

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Qashqadaryo viloyati uy-joy sharoitini yaxshilash bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi (67%), bu esa ushbu hududda migrantlarning iqtisodiy holati nisbatan barqarorroq ekanligini ko'rsatadi [11].

Qaytgan migrantlar misolida ijtimoiy reintegratsiya, malaka orttirish, yangi ish o'rirlari yaratish va mahalliy jamiyatga innovatsion g'oyalarni olib kirish imkoniyatlari ko'zga tashlanmoqda.



1-rasm. Migrantlar va ular oilalari bilan so'rovlar

XULOSA

Tashqi migratsiya O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy mobillikni faollashtiruvchi, tizimiy o'zgarishlarga turtki beruvchi muhim omil sifatida shakllanmoqda. Migratsiya nafaqat iqtisodiy manfaatsizlikka qarshi individual yechim sifatida, balki jamiyatda yangi ijtimoiy pog'onalar, kommunikativ aloqalar va madaniy kapital shakllanishining manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Vertikal ijtimoiy mobillik (maqom o'sishi) migrantlar va ularning oilalari uchun asosiy ko'rsatkich sifatida kuzatildi;
- Migratsiya orqali orttirilgan kasbiy malaka, tajriba va ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga innovatsion impuls berayotganini ko'rsatadi;
- Viloyatlar kesimida ijtimoiy mobillik darajasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, migratsiya intensivligi yuqori bo'lgan hududlarda ijobiy ijtimoiy ko'rsatkichlar shakllanmoqda;
- Gender va yosh omillar ijtimoiy mobillikning yangi shakllari va rollarini yuzaga keltirmoqda;
- Qaytgan migrantlar orasida reintegratsiya jarayonlari turlicha kechmoqda, bu esa individual va hududiy farqlarni chuqurlashtiradi.

Tavsiyalar:

1. Davlat siyosatini hududiy farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish:
 - o Migratsiya intensivligi yuqori bo'lgan viloyatlarda qaytgan migrantlar uchun maxsus reintegratsiya dasturlarini joriy etish zarur.
2. Migrantlarning malaka orttirishlarini tan olish tizimini yaratish:
 - o Xorijda orttirilgan kasbiy malakani O'zbekiston mehnat bozorida rasmiy tan olish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.
3. Ayollar va yoshlar migratsiyasiga ijtimoiy-huquqiy kafolatlar berish:
 - o Ayol migrantlarning huquqlari, xavfsizligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlash bo'yicha alohida gender-senzitiv siyosat ishlab chiqish zarur.
4. Ijtimoiy tarmoqlarga kirishni rag'batlantirish:

- o Qaytgan migrantlar asos solgan mahalliy bizneslar va tashabbuslarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash.
- 5. Empirik monitoringni kengaytirish:
 - o Har yili sotsiologik so'rovlar asosida tashqi migratsiya va ijtimoiy mobillik bo'yicha muntazam monitoring olib borilishi zarur.
- 6. Mahalliy jamiyatda reintegratsiyani soddalashtirish:
 - o Migrantlar va ularning oilalarini mahalliy jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ijtimoiy loyihalarni rivojlantirish.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Сорокин П.А. Социальная стратификация и мобильность / П.А.Сорокин // Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С.295-425.
2. Bourdieu P. (1986). The Forms of Capital.
3. Giddens A. (1991). Modernity and Self-Identity. Polity Press.
4. Granovetter M. (1973). The Strength of Weak Ties. American Journal of Sociology, 78(6), 1360–1380.
5. Kurayev I.Yu. Ijtimoiy harakatchanlik va o'tish tarixiy davr: sabab yoki oqibati // Gumanitar va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari. 2012-yil. № 3.
6. Perevedentsev V.I. Aholi migratsiyasini o'rganish usullari / V.I. Perevedentsev // SSSR Fanlar akademiyasi, Xalqaro mehnat harakati instituti. – M.: Nauka, 1975. – B. 107-108 .
7. International Organization for Migration (IOM).
8. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. <https://kun.uz/news/2024/09/11> .
9. Norov V. Prezident Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari amaliy, dolzarb hamda zamonaviy xarakterga ega. // "Xalq so'zi", 2020-yil 27 oktyabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, 2020-2024-yillar.
11. Muminov Z. The impact of external migration on social mobility: a sociological analysis. Science and innovation international scientific journal Volume 4 ISSUE 5 may 2025. P-15-17/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.15458532>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000